



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

10/2023

E-ISSN 2181-1466





9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



10/2023

MUNDARIJA \*\*\* СОДЕРЖАНИЕ \*\*\* CONTENTS

TILSHUNOSLIK \*\*\* LINGUISTICS \*\*\* ЯЗЫКОЗНАНИЕ

|  |  |     |
|--|--|-----|
| <b>Менглиев Б.Р.,<br/>Гулямова Ш.Қ.</b>      | “Оралиқ учинчи” қонуни ва тилда полифункционал сўзлар муаммоси   | 4   |
| <b>Yuldasheva D.N.</b>                       | Sukut – shaxslararo psixolingvistik birlik   | 14  |
| <b>Mirxanova G.R.</b>                        | Zamonaviy o‘quv lug‘atchiligida sinonim lug‘atlarni takomillashtirish muammolari   | 20  |
| <b>Sharipov S.S.</b>                         | Advancements in contemporary lexicography: a deep dive into electronic and online dictionaries and the nuances of scientific terminology | 24  |
| <b>Rustamova D.</b>                          | Turli tilshunoslik maktab va yo‘nalishlari qarashlarini ensiklopedik lug‘atda ifodalash muammosi   | 28  |
| <b>Bobokalonov R.R.,<br/>Ochilova Y.R.</b>   | Neyropsixolingvistika: nutq madaniyati va so‘z jozibasi haqida mulohaza  | 33  |
| <b>Ganieva O.Kh.,<br/>Khakimova D.M.</b>     | Classification and particular challenges of translating tourism terminology from english into russian language                           | 38  |
| <b>Davlatova M.H.</b>                        | Ingliz tili fe‘l predikatlarining funksional-semantik maydonda voqelanishi   | 43  |
| <b>Amonturdiyev N.R.</b>                     | O‘zbek tili etnografizmlarning nominativ xususiyatlari   | 48  |
| <b>Юлдашева Д.Н.</b>                         | Использование молчания в деонтологической культуре   | 53  |
| <b>Yunusova M.Sh.</b>                        | Shifokorning nutq harakati strategiyasi va taktikalari   | 60  |
| <b>Rasulov Z.I.</b>                          | Semantic and syntactic properties of elliptic structures   | 65  |
| <b>Axmedova D.B.</b>                         | Til korpuslari va ularning birliklari  | 70  |
| <b>Kim Y.H.,<br/>Sunatullaeva M.</b>         | 우즈베키스탄 한국어 학습자의 모음 발음 양상 연구<br>-중급 학습자 중심으로-   | 74  |
| <b>Mardonova S.O.</b>                        | O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalish usullari, yasama so‘zning til va nutqqa munosabati  | 79  |
| <b>Mukhammadieva<br/>N.M.</b>                | Emotive vocabulary as a means of emotional coloring of a literary text   | 85  |
| <b>Narzullayeva F.O.</b>                     | Jahon va o‘zbek tilshunosligida so‘z va polisemantizm  | 90  |
| <b>Nazarova N.A.</b>                         | Tilshunoslikda nazariy va amaliy onomastika tasnifi  | 95  |
| <b>Quvvatova Sh.Ch.</b>                      | Specific features of English and American romanticism  | 100 |
| <b>Raxmatov A.P.</b>                         | Nemis tilida kelasi zamoni ifoda etuvchi vosita va omillarning o‘zaro munosabati   | 107 |
| <b>Saidov X.Sh.</b>                          | Features of using abbreviations in sms language and the internet by the materials of English language                                    | 111 |
| <b>Shaymanova Y.T.,<br/>Karshiboeva Z.A.</b> | Speech acts and their place in modern linguistics  | 115 |
| <b>Tursunov M.M.</b>                         | The link between language and culture in sociolinguistics  | 120 |

|   |   |     |
|---|---|-----|
| <b>Umurova Kh.Kh.</b>   | Linguoculturological analysis of axiological concepts of wedding rite in different cultures                     | 127 |
| <b>Назарова Г.А., Сайдуллаева М.С.</b>  | Калькалаш – сўз ўзлаштиришнинг самарали усули сифатида  | 131 |
| <b>Achilova R.A.</b>  | Baholovchi va tavsiflovchi allyuziyalar talqini   | 137 |
| <b>Jumayev E.B.</b>   | O'zbek adabiy tilida o'zlashtirmalik va gap   | 141 |
| <b>Mansurova N.A.</b>   | Ingliz va o'zbek tillarida marketing va menejmentga oid terminlarda terminologik sinonimiya                     | 146 |
| <b>Tashlanova N.Dj.</b>   | Tarixiy dialektual-lug'at va leksikologik tadqiqotlarda analitik bazaning ahamiyati (Ingliz tili misolida)      | 151 |
| <b>Yunusova M.Sh.</b>   | Polysemy in contrast to homonymy  | 156 |
| <b>Adambaeva F.R.</b>   | Ingliz tilida biotexnologiyaga oid ko'p komponentli atamalarning morfologik xususiyatlari                       | 160 |
| <b>Niyazova Sh.T.</b>   | Lexical significance of «face» across linguistic landscapes: a comparative study in uzbek, russian, and english | 165 |
| <b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM ***</b><br><b>ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b> |   |     |
| <b>Ражабов Д.З.</b>   | Ўзбек халқ шеър тузилишида вазн, ритм, қофия уйғунлиги  | 171 |
| <b>Adizova O.I.</b>   | Maqollar xalq ijodiyotining bebaho namunasi   | 176 |
| <b>Tўраева Б.Б.</b>   | Чингиз Айтматов романларида хронотоп поэтикасининг қиёсий-типологиялик тадқиқи                                  | 180 |
| <b>Eshniyazova M.B.</b>   | The poetics of genres in the mystical works of Alisher Navoi  | 185 |
| <b>Mahmudova D.M.</b>   | Corpora and literature  | 190 |
| <b>Umarov U.A.</b>  | Jahon adabiyotida arxetip tushunchasining paydo bo'lishi va o'rganilish masalasi                                | 195 |
| <b>Шербекова Г.Я.</b>   | Бухоро никоҳ тўйи кўшиқларида совчилик удумининг ифодаланиши  | 200 |
| <b>Kilicheva M.R.</b>   | Postmodern narratology in “Time’s arrow” by Martin Amis   | 205 |
| <b>Kuchkarov T.O.</b>   | “To‘maris” rivoyati syujeti va uning o‘zbek folkloridagi epik talqinlari  | 209 |
| <b>Musurmonov T.T.</b>  | Somerset Moem ijodi va ingliz nasrida noan'anaviy tasvir hamda adabiy arxitiplar                                | 215 |
| <b>Ҳаҳуаева Н.И.</b>  | Asar badiiy olamini yaratishda badiiy makon kategoriyasining adabiy-estetik vazifasi                            | 219 |
| <b>Темирова Дж.Х.</b>   | Сюжетная составляющая игр с противостоением в русском и узбекском детском игровом фольклоре                     | 223 |
| <b>Эргашева Д.А.</b>  | XX аср боши миллий ҳаракатларнинг адабий жараёнларга таъсири  | 227 |



| <b>“NAVOIY GULSHANI”</b>  |   |     |
|---|---|-----|
| <b>Sayliyeva Z.R.</b>   | G‘urbat ahlin bayoni  | 232 |
| <b>Иботова М.О.</b>   | Карими хилқат ичинда макорими ахлоқ...  | 236 |
| <b>FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ</b> |   |     |
| <b>Paluaniyazov B.Y.</b>  | Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashning mafkuraviy-siyosiy jihatlarini                              | 238 |
| <b>Rajabov Sh.Sh.</b>   | Estetik ehtiyojlarning dizayn va kibermarketing sohasidagi transformatsiyasi  | 243 |
| <b>Иномов А.С.</b>  | Ўзбекистон ички ишлар органларида маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш истиқболлари                           | 249 |
| <b>Мирзатиллаев Ж.Ў.</b>  | Жиноят процессида халқаро ҳамкорликнинг моҳияти   | 253 |
| <b>PEDAGOGIKA *** PEDAGOGICS *** ПЕДАГОГИКА</b>   |   |     |
| <b>Xalilov T.</b>   | Masofaviy ta’lim: tabiati va muhimligi  | 258 |
| <b>Yakubova F.Y.</b>  | Pedagogical aspects of developing general competence of students in the conditions of innovative education              | 263 |
| <b>Hajiyeva F.</b>  | Ways to develop intellectual skills in students   | 268 |
| <b>Baumenova K.</b>   | Pisa tadqiqotida kreativ fikrlash: samarali yechimlar va yutuqlar (o‘zbek tili misolida)                                | 277 |
| <b>Sayidova N.S.,<br/>Avezov A.A.,<br/>Ostonova N.X.</b>  | Ispring quizmakerda test sinovlari o‘tkazishning ahamiyati  | 282 |
| <b>Yadgarova L.Dj.,<br/>Ergasheva D.B.</b>  | Axborot texnologiyalarining matematik paketlaridan matematika fanini o‘qitishda foydalanish imkoniyatlari               | 291 |
| <b>Yulbarsova X.A.</b>  | Ishbilarmonlik o‘yinlari orqali bo‘lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish                          | 296 |
| <b>IQTISODIYOT *** ECONOMICS *** ЭКОНОМИКА</b>  |   |     |
| <b>Narzullayeva F.S.</b>  | Iqtisodiy masalalarda matematik modellashtirishni qo‘llash  | 301 |
| <b>Жураев Ф.Д.,<br/>Махматкулов Г.Х.</b>  | Критерии выбора трендовых моделей при среднесрочном прогнозировании производственных мощностей малых предприятий        | 305 |
| <b>Rahimov A.M.</b>   | Mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalarini faoliyatini ekonometrik modellashtirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar | 311 |
| <b>Ashurov Sh.R.</b>  | O‘zbekistonda soliq ma’muriyatchiligini rivojlantirishda Yevropa davlatlari tajribasining ta’siri                       | 316 |

## JAHON VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'Z VA POLISEMANTIZM

*Narzullayeva Firuza Olimovna,*

*Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi va  
tarjimashunoslik kafedrasida katta o'qituvchi, PhD  
f.o.narzullayeva@buxdu.uz*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada til va uning birliklari shakl va mazmun tomonidan iborat bo'lgani, bir butun, yaxlit lisoniy tizimni tashkil etuvchi bu unsurlararo shakl va ma'no munosabatlari voqelanishi, shunday munosabatlardan biri so'zlarning ko'p ma'noliligi (polisemiya) bo'lib, lekin semantik sathni tadqiq qilishning eng muhim bosqichi sanalishi haqida bayon etilgan. Polisemiya til uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi, polisemantik so'zlarning tizimi asrlar davomida shakllanib, yangidan-yangi ma'nolar vujudga kela boshlashi, hozirgi ingliz tilining maqsadi ingliz tili lug'atini boyitib, uning manbalarini shakllantirishi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** polisemiya, obyektiv reallik, so'z, denotativ, konnotativ, nomlovchi so'zlar ifodalovchi so'zlar, ko'rsatuvchi so'zlar, frazema, leksika, metafora, lug'at boyligi, tafakkur.

## СЛОВО И МНОГОЗНАЧНОСТЬ В МИРОВОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается язык и его единицы формируются формой и содержанием, а также раскрываются формо-смысловые отношения между этими элементами, составляющие целостную языковую систему. Одним из таких отношений является полисемия (многозначность) слов, но она считается важнейшим этапом исследования семантического уровня. Полисемия важна для языка. Целью современного английского языка является обогащение словарного запаса английского языка и формирование его источников.

**Ключевые слова:** полисемия, объективная реальность, слово, денотатив, коннотатив, слова-наименования, экспрессивные слова, указательные слова, словосочетание, лексика, метафора, лексика, мышление.

## WORD AND POLYSEMANTICISM IN WORLD AND UZBEK LINGUISTICS

**Abstract.** In this article, the language and its units are formed by form and content, and the form and meaning relations between these elements, which make up a whole, integrated linguistic system are revealed. One such relationship is polysemy of words, but it is considered the most important stage of researching the semantic level. Polysemy is important for language. The aim of modern English is to enrich the vocabulary of the English language and to form its sources.

**Key words:** polysemy, objective reality, word, denotative, connotative, naming words, expressive words, indicative words, phrase, lexicon, metaphor, vocabulary, thinking.

**Kirish.** So'zlar obyektiv reallikdagi predmet hamda holatlarni nomlaydi. So'zning tovush tuzilishi ma'lum bir ma'no bilan bog'liq. Aynan so'zda ma'noning mavjudligi, uni biror ma'noga ega bo'lmagan tovush hamda tovush tuzilmalaridan farqlaydi.

So'z - bu predmet, holat, belgi, harakatning nomlanishidir. So'zlar xalqlarning muloqot davri mobaynida mustahkamlanib boradi.

So'z hamda tushuncha bir xil emas; so'z-til birligi bo'lsa, tushuncha fikr birligidir. Tushuncha reallikning fikrdagi umumlashtirilgan aksidir.

So'z umumiy yoki birlik ma'no anglatuvchi deb aytish mumkin.

Biz "computer is a useful thing" deb aytganimizda, qandaydir aniq bir kompyuterni emas, balki umuman kompyuterni nazarda tutamiz. Bu holatda "computer" so'zi umumiy ma'no anglatuvchi deb aytishimiz mumkin (*computer is a useful thing, reading is pleasant*). Shuningdek, so'z konkret holat, harakat, belgini ham nomlashi mumkin (*this computer is out of order*). "Computer" so'zi bir tomondan kompyuter tushunchasini anglatasa, ikkinchi tomondan konkret bir kompyuterni nomlaydi.

So'z denotativ va konnotativ ma'noga ega. So'z o'z ma'nosida predmet yoki holat bilan ma'no jihatidan mos keladi: head-bosh, heart-yurak.

Soʻzning koʻchma maʼnosi bir soʻzning boshqa bir soʻzga, holatga, harakatga oʻxshashlik asosida koʻchirish orqali yuz beradi: the head of the family-oila boshligʻi - bu oila aʼzolari tomonidan oʻz nasabidagi hokimiyat mavqeini tavsiflash uchun odatda ishlatiladigan atama; the heart of matter - ishning mohiyati. Let's get to the heart of the matter!: Let's get to the root, core, essence, centre of the matter or subject!

Har bir soʻz maʼlum maʼnoni anglatadi. Ammo bu maʼno barcha soʻzlarda bir xil emas. Shu jihatdan soʻzlar bir necha guruhga boʻlinadi. Soʻzlarning maʼno turlari quyidagicha:

— Nomlovchi soʻzlar. Bu maʼno turiga ot (baʼzi atoqli otlardan tashqari), feʼl, sifat, ravish, son kiritiladi. Bular narsani, harakatni va ularning turli-tuman belgilarini nomlaydi: paper-qogʻoz, to write-yozmoq, thick-qalin, quick-tez, seven-yetti.

— Ifodalovchi soʻzlar. Bu maʼno turiga undov, modal soʻz va yuklama kiritiladi:

— Oʻzbek tili: *eh, shubhasiz*. Qoʻqongʻa fotiha uchun qoʻzgʻalishlaridan hech bir shubhalanmadim... Eh, shaytonlar!.

Ingliz tili: *oh, hush, perhaps*. Perhaps he couldn't help it, after all. He had done well in Chicago.

Oʻzbek tilida: modal soʻz: aksincha, xullas, umuman: Raqibning oʻldirilishi uning tamom soʻnib bitkan umidini yana qaytargʻandek boʻlsa ham, nima uchundir ul bu ishdan oʻziga tinchlik ortdira olmagʻan, aksincha tinchsizlana boshlagʻan edi.

Ingliz tilida: *vice versa, so, generally*: He liked Carrie, and said so, publicly—adding, however, that she was merely pretty, good-natured, and lucky. (Theodore Dreiser, *Sister Carrie*, 276). He was more *generally* known than most others in the same circle, and was looked upon as some one whose reserve covered a mine of influence and solid financial prosperity. (Theodore Dreiser, *Sister Carrie*, 107).

Oʻzbek tilida: yuklamalar naq, faqat, xuddi, ham: Ahvol olgʻuchilar Zanjirliqqa yetish bilan naq ishning qay darajaga yetkanini payqadilar: koʻchalar chip bilan toʻlgʻan, chip orqalari shashvar, miltiq, xanjar, nayza ushlagan olomon bilan liq edi.

Ingliz tilida: *like, as, just like, only, too*. "Use everything and abuse me and then walk off. That's just like a woman. (Theodore Dreiser, *Sister Carrie*, 137). She half closed her eyes and tried to think it was nothing, that Columbia City was only a little way off. (Theodore Dreiser, *Sister Carrie*, 8).

**Koʻrsatuvchi soʻzlar.** Bu maʼno turiga oʻzbek tilida bogʻlovchi va koʻmakchi: va, bilan; ingliz tilida predlog va bogʻlovchi: in, at, of, with, as, whereas, because, therefore... kabilarni misol keltirish mumkin.

Ikkinchi va uchinchi tur soʻzlarda nomlash maʼnosi yoʻq: ayrimlari bevosita his-hayajonni, fikrga munosabatni ifodalasa, boshqalari (bogʻlovchi, koʻmakchi, predlog) soʻzlarning grammatik munosabatini koʻrsatish uchun xizmat qiladi.

Baʼzan bir soʻz bir necha maʼnoni anglatishi mumkin. He wondered how this important fact had skipped him. Goodness knows when she would be back now (Theodore Dreiser, *Sister Carrie*, 278). Herstvud qanday qilib gʻaflatda qoldi? Qachon qaytishini xudoning oʻzi biladi! (470).

"I will take anything," he said, relieved, and wincing under reproof. "I'd just as leave dig on the streets. Nobody knows me here." Axir meni bu yerda hech kim tanimaydi-ku. (Teodor Drayzer, *Baxti Qaro Kerri*, 397).

Carrie felt that she would like *to know her*, and a similar feeling stirred in the mind of the other, who admired Carrie's innocent face. Kerrining soddagina ruxsordan hayratga tushgan yoshgina juvonning xayolidan ham shunday fikr oʻtdi (Teodor Drayzer, *Baxti Qaro Kerri*, 313).

Soʻz deganda lugʻat boyligidagi har bir birlik koʻzda tutiladi. Masalan, "qoʻl" ham, "va" ham soʻz. Bunda soʻz leksik maʼnoga ega birlik boʻlishi mumkin. Shu asosda bularni leksik soʻz va grammatik soʻz deb ikki guruhga ajratish kerak. Leksik maʼnoga ega soʻzlarni leksema deb yuritimiz, grammatik maʼnoga ega boʻlgan soʻzlarni esa morfema-soʻz deb yuritimiz. Demak, leksik birlik deganda leksema koʻzda tutiladi, leksemalarni oʻrganuvchi soha leksikologiya deyiladi (yunoncha "lexicos" – "soʻzga doir", "logos"- taʼlim).

**Asosiy qism.** Lugʻat boyligidagi ikkinchi qatlamni iboralar tashkil etadi, bular frazeologik birlik deb yuritiladi; leksema terminiga moslab frazema deb nomlaymiz. Frazemalarni oʻrganuvchi soha frazeologiya deyiladi. Lugʻat boyligidagi frazeologik qatlam ham frazeologiya deb nomlanadi.

Lugʻaviy birlikning mazmun plani ikki hodisadan – lugʻaviy va emotsional-ekspressiv bahodan tarkib topadi. Lugʻaviy maʼno leksik maʼnoga nisbatan leksik maʼno deb, frazemaga nisbatan frazeologik maʼno deb yuritiladi.

Leksemani hosil qilgan tovushlar tuzumining voqelikka nisbatan beriladigan lugʻaviy mazmun ifodalashiga leksik maʼno deyiladi. Masalan: "kuz" leksemasi "yoz" bilan "qish" orasidagi faslni nomlaydi, "oq" leksemasi qoraning zidi boʻlgan rangni bildiradi, "toʻrt" leksemasi "uch" bilan "besh" orasidagi butun miqdorning nomi boʻlib xizmat qiladi: soʻzlamoq, uxlamoq leksemalari maʼlum harakat va holatni anglatadi.

Tovush o'zicha leksik mazmunga ega bo'lmaydi. Buning uchun tovushlarning ma'lum tizimi, voqelikdagi biror narsa, belgi yoki ularning munosabati haqidagi tushuncha bilan bog'lanishi, nimanidir nomlashi, ifodalashi shart. Leksik ma'no ma'lum tovushlar tuzumi bilan voqelik orasidagi bog'lanishdan kelib chiqadi. Bunday bog'lanish esa, o'z navbatida, shu tilda so'zlashuvchilar tomonidan e'tirof etilgan bo'lishi lozim.

Tovushlar tizimi bilan leksik ma'no orasida qandaydir tabiiy bog'lanish yo'q. Voqelikdagi ayni bir narsa, belgi yoki shular orasidagi munosabat tushunchasi tilda turli tovushlar tizimi bilan anglatilishi buni yaqqol ko'rsatadi.

Masalan, to hear-eshitmoq leksemasi ma'lum harakatni anglatadi, shu harakat yana to listen-tinglamoq leksemasi bilan ham anglatiladi.

Leksik ma'no bilan u bildiradigan voqelik boshqa-boshqa hodisalardir. So'z tushuncha ifodalar ekan, ya'ni so'zning ma'nosi tushuncha bilan bog'lanar ekan, leksik ma'no va tushuncha so'zning semantik tarkibidagi asosiy hodisalar hisoblanadi. Ular o'zaro uzviy bog'liq. Ammo ular teng hodisalar emas. Leksik ma'no tilga xos hodisa, tushuncha esa tafakkurga xos hodisadir.

Lekin tushuncha fikrlash qobiliyatining natijasi sifatida insonga nisbatan belgilansa, leksik ma'noga xos umumlashish har bir tilning o'z doirasida voqe bo'ladi. Shunga ko'ra leksik ma'no har bir til uchun, odatda, xususiy bo'ladi. Masalan bir tushuncha – "eshitish a'zosi" tushunchasi o'zbek tilida "quloq" leksemasi bilan, ingliz tilida esa "ear" leksemasi bilan anglatiladi. Shu jihatdan teng keluvchi bu ikkala leksema o'z leksik ma'nolari sistemasi bilan keskin farq qiladi.

O'zbekcha leksema uchun: 1) "tirik mavjudotning eshitish organi"; 2) "eshitish qobiliyati"; 3) "narsalarning biror belgi bilan ajralib turadigan ma'lum qismi, bo'lagi".

Inglizcha leksema uchun: 1) Ot: "quloq"; 2) "teshik, quloq (ignada)"; 3) "izquvar, detektiv (sheva)"; 4) "televizor qulog'i (sheva)"; 2. Fe'l: "eshitmoq, tinglamoq", "quloq tutmoq".

Ma'no so'zning umumiy voqelik ifodasini aks ettirishdir. So'zda tushuncha ifodalanadi va shu bilan birga so'z nimanidir ataydi, belgilaydi. Biz so'z bilan ifodalaydigan hodisa, narsa yoki predmet bizning ongimizdagi tushunchaning aksidir. Shu sababdan so'zning tuzilishi murakkabdir. U har xil ifodalash, belgilashning hamda tushuncha va ma'noning murakkab aloqasidir. Ingliz tili leksikasini o'rganishda va o'rgatishda shularga e'tibor berish lozim. So'zning talaffuzi yoki yozuv orqali ifodalanishi harakat bilan bajarilib turiladi. Shuning uchun so'zni o'zlashtirish miya yarim sharlari qobig'ining ko'rish, tinglash, eshitish, harakat qilish o'rinlarida vaqtincha murakkab nerv aloqalarining sodir bo'lishidir.

So'z murakkab bo'lgani uchun faqatgina qabul qilinmasdan, balki tasavvur ham qilinadi. Ikkalasida ham insonning ongida so'zning tasviri hosil bo'ladi, birinchisida faqatgina so'zning talaffuzi bo'lsa, ikkinchisida esa eslab tushunishni qo'zg'atuvchanligidadir.

Demak, so'zda qo'zg'atuvchi sifatida 3 ta qism tinglash, ko'rish va harakat qilish qismlari bor. Ingliz tili leksikasining xususiyatlari, uni o'rgatish, o'rganishga ta'sir qiladi. Undan ijobiy, unumli foydalanish yaxshi natija beradi.

Ingliz tili leksikasining lingvistik xususiyatlarini 3 guruhga bo'lish mumkin: Ingliz tili leksikasining alohida o'ziga xos lingvistik xususiyatlari. Bular o'quvchi ona tili leksikasini ingliz tili leksikasi bilan taqqoslagandan kelib chiqadigan lingvistik xususiyatlardir.

Shu xususiyatlarni hisobga olgan holda leksik materiallar tanlash zarur bo'ladi. Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, kam sonli leksikani nutq faoliyatida qo'llanishini hamma vaqt ham amalga oshirib bo'lmaydi. Shu sababdan, biz bitta leksikaning bir nechtasi o'rnida qo'llanishi mumkin bo'lgan leksikani tanlashimiz kerak.

Leksika quyidagi tamoyil asosida tanlanadi:

Qo'llanish darajasiga qarab tanlash tamoyili, ya'ni ko'p yoki kam qo'llanishi asosida (lingvistlar ba'zan ularni aktiv va passiv leksikaga bo'ladi) mavzu bo'yicha tanlash; gap tuzishda tez ishtirok etish, ko'p ma'noga ega bo'lishlik, stilistik chegaralanmaslik, namunalik, sinonim so'zlardan bittasini olish va o'quv jarayoni uchun bitta so'z olish tartibi tamoyillarga bo'linadi.

Demak, yuqoridagi talablarga asosan leksik material tanlanadi va ular til o'rganayotgan guruhlariga qarab farqlanadi. Bunda o'rta maktab leksikasini, oliy maktab leksikasi bilan aralastirib yubormaslik lozim.

Leksik ma'no odatda bir predmet, belgi, harakatning nomini boshqa bir predmet, belgi, harakatga ko'chirish orqali rivojlanadi. Ko'chirishlar, asosan, funksional; metonimiya, metafora va sinekdoxa yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bir narsa, belgi, harakatning nomi boshqasiga o'zaro tashqi (shakli, rangi kabi jihatlari bilan) o'xshaganligi asosida ko'chirilsa, metafora yo'li bilan ko'chirish deyiladi.

Masalan o'zbek tilidagi "yo'l" leksemasini olib ko'raylik, u asli "o'tish joyi" ma'nosini anglatadi. Shakli o'xshashlik asosida bu leksema "satr" ma'nosini ham anglatadi boshlagan.



Ingliz tilidagi “line” leksemasi asli “yo‘l, chiziq” (“to‘g‘ri chiziq”) ma‘nosini anglatib, shakliy o‘xshashlik asosida bu leksema “sati”, “she‘r” (4 qatorlik), “ajin” (yuzdagi chiziqlar), “arqon” ma‘nolarini anglatib boshlagan.

Metafora yo‘li bilan ko‘chirishning asosiy ko‘rinishlari:

1. Bir narsaning nomi boshqa bir narsaga shakliy o‘xshashlik asosida ko‘chiriladi: og‘iz (odamning og‘zi), og‘iz (shishaning og‘zi); qo‘ltiq (odamning qo‘ltig‘i), qo‘ltiq (dengizdagi qo‘ltiq); mouth (odamning og‘zi), mouth (shishaning og‘zi); etak (kiyimning etagi), etak (tog‘ning etagi); foot (odamning oyog‘i), foot (mebelning oyog‘i).

2. Bir narsaga (ba‘zan harakatga) xos belgining nomi boshqa bir narsadagi belgiga ko‘chiriladi: achchiq (achchiq qalampir), achchiq (gap), sweet (sweet chocolate), sweet (sweet dream).

3. Bir narsaga xos harakatning nomi boshqa bir narsa harakatiga ko‘chiriladi: cho‘kmoq (cho‘kkalamoq), cho‘kmoq (imoratning cho‘kishi), cho‘kmoq (odamning qarigandagi cho‘kishi); o‘lmoq (jonlilarda hayotning tugashi), o‘lmoq (o‘simlik palagining so‘lishi) kabi.

Biror narsaning nomi boshqasiga ular bajargan vazifadagi o‘xshashlik asosida ko‘chirilishi funksional ko‘chirish deyiladi. Funksional ko‘chirish ham o‘xshashlik asosida bo‘ladi. Bu jihatdan u metafora yo‘li bilan ko‘chirishga juda yaqin turadi. Farq shundaki, metafora yo‘li bilan ko‘chirishda predmetlar orasidagi tashqi ko‘rinishi jihatidan o‘xshashlik asosga olinsa, funksional ko‘chirishda vazifa jihatidan o‘xshashlik nazarda tutiladi.

Masalan, qush tanasidagi uchish uchun xizmat qiluvchi a‘zo “qanot” deyiladi. Shunga o‘xshash vazifani bajaruvchi qism samolyotga nisbatan ham qanot deb nomlangan.

Bir narsa, belgi, harakatning nomi boshqa bir narsaga o‘xshashlik asosida emas, balki o‘zaro bog‘liqlik asosida ko‘chirilishi metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish deyiladi.

Masalan, dasturxon leksemasi “ovqatlanish uchun yoziladigan buyum”ni anglatadi; bu leksema bilan ovqatning o‘zi, “dasturxonga qo‘yiladigan noz-ne‘mat” ham bildiriladi.

Metonimiya bilan ko‘chirishning asosiy ko‘rinishlari:

1. Bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmetga ko‘chiriladi: bosh (kishi organizmining bo‘yindan yuqori qismi), bosh (“miya”: Boshim og‘riyapti); burun (“a‘zo”), burun (“oldin, avval” avvalgi paytlarda);

2. Bir narsaning nomi shu narsaga asoslangan o‘lchov birligining nomi bo‘lib xizmat qiladi: kun (“quyosh”) – kun (“sutkaning yorug‘ qismi”); oy (“planeta nomi”) – oy (“yilning o‘n ikkidan bir qismi”).

3. Bir narsaning nomi shu predmetdan hosil bo‘ladigan predmetga ko‘chiriladi: til (“nutq a‘zosi”) – til (“nutq”) kabi.

4. Belgining nomi shunday belgisi bor narsaga ko‘chiriladi: ko‘k (rang nomi) – ko‘k (“ko‘kat”) – ko‘k (“osmon”); kir (“iflos”) – kir (“ifloslangan yoki yuvilgan kiyim-kechak”); yupqa (“qalinning aksi”) – yupqa (taom nomi).

5. Harakatning nomi shu harakat natijasida hosil bo‘ladigan narsaga ko‘chiriladi: tuymoq – tuy, atalamoq – atala, quchmoq – quch kabi (ba‘zan qarama-qarshi ma‘no ham tug‘iladi: ko‘rmoq – ko‘r). Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga qism bilan butun munosabati asosida ko‘chirilishi sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirish deyiladi.

Sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirish metonimiya yo‘li bilan ko‘chirishning bir ko‘rinishi deb yuritiladi. Sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirishning o‘ziga xos xususiyati miqdor belgisiga asoslanishdir. Sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirish:

a) Bir narsaning nomi sifatida unga xos bo‘lgan biror qismning nomi ishlatiladi (qism orqali butun anglatiladi): tirnoq (qism) – tirnoq (butun: Dunyoda tirnoqqa zor odamlar oz deysizmi?!); yurak (qism) – yurak (butun: Bu otashin yurak...) kabi;

b) Bir predmetning nomi sifatida xuddi shunday predmetni ham o‘z ichiga olgan butunning nomi ishlatiladi (butun orqali qism anglatiladi); bosh (butun) -bosh (qism: boshning ustki qismi; “Do‘ppi boshimga tor keldi”), qo‘l (butun), qo‘l (qism: barmoq; Besh qo‘l barobar emas), panja (butun) – panja (qism – barmoqlar; Besh panjangni og‘zingga tiqma”), osh (umuman ovqat) –osh (palov) kabi.

Tilning leksik birliklari, shuningdek, ko‘p ma‘noli so‘zlarni o‘rganuvchi sohasiga leksikologiya deyiladi.

**Xulosa.** So‘zning ma‘no tarkibi va u bilan bog‘liq hodisalarni o‘rganuvchi leksikologiya bo‘limi semasiologiya deyiladi. So‘zlarning ayrimlari faqat bir leksik ma‘nodan, ayrimlari ikki va undan ortiq leksik ma‘nodan tarkib topadi. Shu xususiyatiga ko‘ra ular ikkiga bo‘linadi.

1) so‘zlarning faqat bir leksik ma‘noga ega bo‘lishi – monosemiya;

2) so‘zlarning ikki va undan ortiq leksik ma‘noga ega bo‘lishi – polisemiya.



Barcha til birliklari monosemantik va polisemantik, deb ikki guruhga guruhlanadi, bulardan polisemantik til birliklari alohida diqqat bilan o'rganishni talab qiladi.

Monosemiya yangi yaratilgan so'zning hamda yangi o'zlashtirilgan so'zning boshlang'ich ishlatilish davriga xos deb qaraladi. Terminlar ham odatda monosemantik bo'ladi. Monosemantik so'zlar qatoriga shartli ravishda atoqli otlar ham kiritiladi.

Har bir so'z o'z yaratilishiga ko'ra monosemantik bo'ladi: biror predmet, belgi, munosabatning nomi sifatida yuzaga keladi. Keyinchalik u boshqa hodisalarga ham nom bo'lib xizmat qiladi, shu yo'l bilan o'z ma'nosi o'zgartiradi, taraqqiy ettiradi. Natijada so'z ma'nosida turli tuman siljishlar voqe bo'ladi, shuning oqibatlaridan biri sifatida monosemantik so'z polisemantik so'zga aylanadi.

So'zlar ma'noviy munosabatiga ko'ra polisemiya, sinonimiya, antonimiya, giponimiya, graduonimiya, partonimiya va funkcionimiya singari turlarga ajratiladi. Mazkur faslda polisemantik so'zlarni o'rganishni maqsad qildik.

Polisemiya - bir so'zning bir necha ma'noga ega bo'lishi, ko'p ma'nolilik: bosh, qosh, ko'z, til. Polisemantik so'zlarning ma'nosi faqat matnda bilinadi: Biram ko'zi o'tkir ekanki. Qaraganni teshaman deydi (Said Ahmad, Ta'zim, 77).

Polisemiya ikki asosiy yo'l bilan hosil bo'ladi:

- 1) so'zning yangi ma'no kasb etishi;
- 2) ko'p ma'noli so'zdan yoki ko'p ma'noli qo'shimcha vositasida so'z yasalishi.

*Polisemantik so'zlar* qancha ma'noga ega bo'lmasin, bu so'zlar ma'nosi o'zaro bog'langan bo'ladi. Xuddi shu xususiyat ularni omonimlardan farqlaydi.

So'zning yangi ma'no kasb etishiga olib keluvchi faktorlarni ikki guruhga bo'lamiz: 1) nolisoniy faktorlar; 2) lisoniy faktorlar.

Nolisoniy faktorlarda ma'lum narsa, belgi atamasi bo'lgan so'z boshqa narsa, belisini ham ataydigan bo'ladi, ya'ni uning nomiga aylanadi.

Shu yo'l bilan so'zning yangi ma'nosi vujudga keladi. Masalan: moy, momiq.

So'z ma'nolarning turli belgi asoslariga o'xshashligi metafora metonimiyalar asosida ma'no ko'chishi lisoniy faktorlar sanaladi.

Masalan: Muazzam ham shu ahvolda. U dunyoda eng yaqin kishisi halokat yoqasida turgan shu daqiqalarda uning tanasiga jon bo'lib kirishga tayyor (Said Ahmad, Ta'zim, 34).

Til - serqirra hodisa bo'lib, obyektiv voqelikning ijtimoiy shakli sifatida yashaydi, rivojlanadi. Mashhur tilshunos olim Ferdinand de Sossyur ta'kidlaganidek, ijtimoiy tabiati jihatidan qaraganda, til madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisadir, ichki tuzilishiga ko'ra til sof belgi-ishora (ramz)lar sistemasidir. Darhaqiqat, lison inson tafakkurida o'ziga xos umumiy birliklar, ramzlar tizimi sifatida yashaydi, u nutq sharoitidagina ro'yobga chiqadi, moddiylashadi.

### ADABIYOTLAR:

1. Аракин В.Д. *Лексическая сочетаемость слов как один из компонентов словарной статьи* / В.Д.Аракин // *Актуальные проблемы учебной лексикографии*. – М.: Русский язык, 1978. – Б. 5-11.
2. Ахманова О. С., Магидова И. М. *Прагматическая лингвистика, прагмалингвистика и лингвистическая прагматика*. — *Вопр. языкознания*, 1978, № 3. – С.45
3. Богдашов Д.В. *соматические фразеологические единицы с компонентом head (на материале английского и русского языков)*/ Д.В.Богдашов *Царскосельское чтение*. – 2015. – С.309-312.
4. Богус З.А. *Культурно-национальная интерпретация фразеологического соматического пространства в разносистемных языках (на материале русского, адыгейского и английского языков)* // *Вестник Адыгейского государственного университета*. – 2010. № 4. – С. 86-90.
5. Воркачев С. Г. *Лингвоконцептология и межкультурная коммуникация: истоки и цели* // *Филологические науки*. 2005. № 4. – С. 76-83.
6. Воркачев С. Г. *Концепт как «зонтиковый термин»* // *Язык, сознание, коммуникация*. Вып. 24. – М.: МАКС Пресс, 2003. С. 5-12.;